

IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOIY HAYOTGA TAYYORLASH BO'YICHA KORREKSION- PEDAGOGIK ISHLAR

Abdumutal Olimovich Abdunazarov

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Pedagogika-psixologiya va musiqa
yo'nalishlarida masofaviy ta'lim kafedrasi dotsenti v.b.

abdumutal517@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada aqli zaif bolaga talim tarbiya berish uni jamiyatga, ijtimoiy xayotga moslashtirish haqida fikrlar yuritilgan, aqli zaif bolalarning ta'lim- tarbiya olishlari uchun yaratilgan keng imkoniyatlar, shart-sharoitlar bo'yicha fikr-mulohazalar yuritilgan. Aqli zaif bolalarni ijtimoiy xayotga moslashtirish, ularni mustaqil faoliyatga tayyorlashning o'ziga xos jihatlari ochib berilgan, bu masalaning mohiyatiga oid qarashlar sanab o'tilgan. Shuningdek maxsus matab-internatlarining asosiy maqsadi, vazifalari hamda aqli zaif bolaning mustaqil faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishda sub`yektlarning doimiy xamkorlik mexanizmlari zarurati asoslab o'tilgan.

Kalit so'zlar: aqli zaif, alohida ehtiyojli bolalar, ijtimoiy, maxsus ta'lim, kliniko-pedagogik, oligofreniya, endogen, ekzogen, irsiy omillar, aqli zaiflik, debillik, imbesillik, idiota.

ABSTRACT

The article discusses the education of mentally retarded children and their adaptation to society and social life, as well as the wide range of opportunities and conditions created for the education of mentally retarded children. The peculiarities of the adaptation of mentally retarded children to social life, their preparation for independent activity are described, and the views on the essence of this issue are listed. The main goals and objectives of special boarding schools, as well as the need for constant cooperation between the subjects in the formation of independent thinking skills of the mentally retarded child.

Keywords: mentally retarded, children with special needs, social, special education, clinical pedagogical, oligophrenia, endogenous, exogenous, genetic factors, mental retardation, dementia, imbecility, idiocy

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’limning har bir sohasi kabi maxsus ta’limning mazmunini takomillashtirish, amaliyotga innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalasi dolzarb sanalmoqda. Maxsus ta’lim rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va hayotga tayyorlash vazifalarini hal etadi. Ma’lumki, u yoki bu turdagи rivojlanish muammolariga ega bolalar orasida miya faoliyatida organik buzilishlar oqibatida intellektida ma’lum chetga chiqishlar, og‘ishlarga ega bolalar mavjud bo‘lib, ular ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida ta’lim oladilar. Jahon miqyosida bu kabi bolalar yer yuzi aholisining 3 % ini tashkil etadi. Aqli zaif bolalar va o‘smlarning ta’lim olishi xalqaro va milliy huquqiy-me’yorlarga asoslanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimizda bola huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslari yaratilib, bir qator qonunlar qabul qilindi va ularda bola huquqlari kafolatlab qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi 1992-yilda “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya (1989-yil 20-noyabr BMT tomonidan qabul qilingan)ni ratifikatsiya qildi. Ushbu Konvensiya BMTning bolalikni muhofazalash borasidagi eng universal hujjatidir. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunida bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minalash, hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish, kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish va boshqa qator ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega vazifalarini amalga oshirish kafolatlab qo‘yilgan. Bundan tashqari oxirgi 5 yil mobaynida ta’limni isloh qilish, fuqarolarning bandligini ta’minalash orqali farovon hayot kechirish sharoitini ta’minalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyaning tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar mazmunida aholining ehtiyojmand qatlamlariga ta’lim xizmatining moslashgan turlarini, differensial yondashuvlarga asoslangan tizimni joriy etish belgilab qo‘yilgan. O‘sib kelayotgan yoshlar orasida aqli zaif bolalar mavjud bo‘lib, ularning sifatli ta’limga jalb etilishi borasida ham qator ijobjiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Jumladan, aqli zaif bolalar maktablari uchun o‘quv rejalarini optimallashtirish, fan dasturlarida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalarini inobatga oluvchi variativ

yondashuvlarni singdirish, mazkur toifa bolalarning egallashi lozim bo‘lgan kasb turlari bo‘yicha ta’lim muassasalarida moddiy-texnika bazani mustahkamlash kabilarni misol qilishimiz mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, ijtimoiy-iqtisodiyot tarmoqlarni transformatsiya qilish va rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minalash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarda imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash masalasi alohida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ning 66-maqsadi aynan rivojlanishida turli muammolari bo‘lgan bolalar va kattalarni to‘laqonli turmush tarzi bilan ta’minalashda sifatli ta’lim xizmatlarini kuchaytirish va bu jarayonga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish ko‘zda tutilgan. Jumladan, Taraqqiyot strategiyasida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha 2022-yilda quyidagi vazifalarni bajarish belgilab berildi. Ular: o‘rta ta’lim tizimini zamon talablariga moslashtirish; umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirish; taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug‘lashga yo‘naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati; nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish; nogironlik belgisi bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda teng sharoitlarni va ularni buzganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minalash; nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta’minlovchi inklyuziv ta’lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish; nogironlikni belgilashning ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o‘tish kabi muhim vazifalar belgilandi.

Ma’lumki, sog‘lom bolalar kabi aqli zaif bolalar uchun ham ta’limning ilk davrlari kompleks rivojlanishning muhim davri bo‘lib, bola shaxsini shakllanishini ilk yoshi hisoblanadi. Bu davrda ular tengdoshlari bilan muloqoti tashkiliy jihatdan murakkab ko‘ringan o‘zaro munosabatlarni paydo qiladi va bola shaxsi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Boshlang‘ich sinf aqli zaif bolalarning ichki olami o‘zgacha bo‘lib, boshqa bolalar va kattalar olami bilan bog‘liq bo‘ladi. Aqli zaif bolaning yoshi katta bo‘lgan sari, u tengdoshlari bilan ko‘proq muloqotga intiladi yoki bu jarayondan qochadi. Aqli zaif bola

uchun boshlang‘ich ta’lim davri ham jamoaviy sifatlarning shakllanishidagi senzitiv davr hisoblanadi, shuningdek, boshqa odamlarga insoniy munosabatlarni uyg‘otadi. Agarda bu sifatlarning asosi oilada va maktabda shakllanmasa, bola shaxsi rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Buning oqibatida bola rivojlanishida to‘siqlar ro‘y beradi. Bu yoshda bilish faolligi ortib boradi: idrok, ko‘rgazmali tafakkur rivojlanadi, matniqiy tafakkur kurtaklari paydo bo‘ladi. Bilish imkoniyatlarining o‘sishi xotira, ixtiyoriy diqqat hosil bo‘lishiga olib keladi. Boshlang‘ich ta’lim davrida aqli zaif bolada atrof-olam haqidagi tasavvurlar paydo bo‘ladi, atrofdagi voqelik va hodisalarning oddiy o‘zaro aloqadorligi qonuniyatlarini anglash ko‘nikmasi shakllanadi shuningdek, olgan bilimlarini mustaqil ravishda amaliy faoliyatida qo‘llay oladilar.

Aqli zaif bolalarni ijitimoiy hayotga tayyorlashda nutqiy ifodalardan foydalanish muhim rol o‘ynaydi. Chunki nutq orqali aqli zaif bola turli faoliyat turlariga kirishadi. Boshlang‘ich sinf aqli zaif o‘quvchilar so‘zlar orqali berilgan harakatlar-topshiriqlarni bajaradilar, pedagogning tushuntirishi asosida narsalarning nomlari va belgilarini o‘zlashtiradilar. Natijada, aqli zaif bola ushbu narsalardan kundalik hayotda qo‘llashga zarur ko‘nikmalarni egallaydi. Eng muhimi, bu jarayon ko‘rgazmali bo‘lishi talab etiladi. Aqli zaif bolaning anglashi-hissiy bilishi ko‘rgazmali tafakkur orqali paydo bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf aqli zaif bolada idrok, ko‘rgazmali harakatli va ko‘rgazmali obrazli tafakkur shakllanadi, uning bilish imkoniyatlariga qarab, faoliyatning kelgusidagi rivojlanishi, nutqi ko‘proq yuqori bosqichga chiqsa-da, mantiqiy tafakkur shakllarining hosil bo‘lishi sekin kechadi. Sanab o‘tilgan psixik jarayonlar aqli zaif bolaning ijtimoiylashuvini o‘rganishda va albatta, ijtimoiy hayotga tayyorlashda muhim sanaladi.

Boshlang‘ich sinf aqli zaif bolalar maxsus ta’lim tashkil etilgan o‘quv tarbiyaviy faoliyat orqali yangi faoliyat turlarini, ya’ni o‘yin, tasviriy (sensor mashqlar), ta’limiy faoliyat elementlarini egallaydilar. Aqli zaif bolalarga boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fan asoslarini o‘rgatishning hamda pirovardida ijtimoiy hayotga tayyorlashning muhim va yetakchi usuli bu o‘yindir.

Boshlang‘ich sinf aqli zaif bolalarni maxsus tashkil etilgan korreksion-pedagogik jarayonda ijtimoiy hayotga tayyorlashda kuzatish usuli ham pedagog uchun va albatta, o‘quvchi uchun keng qo‘llaniladi. Biz kuzatishning integratsion shaklini tavsiya etmoqdamiz. Chunki aqli zaif bola integratsion muhitda o‘zini tutishi, atrofdagilar bilan muloqotini o‘rganish vaziyatida turli faoliyat egasiga aylanadi. Natijada, kuzatish obyekti bolaning turli faoliyatlariga yo‘naltiriladi. Dars va mashg‘ulotlararo bog‘liqlik ham mazmunan, ham tashkiliy jihatdan olib boriladi. Pedagoglar va

tarbiyachilar qo‘yilgan vazifalar va sharoitlarning o‘quv faoliyatiga mos kelishini ta’minlashlari hamda natijaga erishishning samarali yo‘llarini aniqlashlari talab etiladi. Mashg‘ulotlarda belgi va simvollardan foydalanish, o‘rganilayotgan jarayon va obyektlarning modelini yaratishda samara beradi, shuningdek, o‘quv va amaliy vazifalarni yechishning turli yo‘llari aniqlanadi.

Pedagog, tarbiyachilar va ota-onalar aqli zaif bolalarni o‘qitish va tarbiyalayotgan vaqtlarida, avvalo, ularning psixologik tomonlariga ta’sir qiladilar. Boshqacha qilib aytganda, o‘quv-tarbiyaviy hamda korreksion ta’sir orqali aqli zaif o‘quvchilarning xotirasini, diqqatini, fikr va tuyg‘ularini o‘stirishga harakat qiladilar. Bu o‘rinda aqli zaif bolalar psixologiyasiga oid nazariy ma’lumotlarga e’tibor qaratish lozim. Ushbu ma’lumotlarning ahamiyati shundaki, agar pedagoglar va ota-onalar aqli zaif bolaning psixik taraqqiyotiga xos qonuniyatlarni va bola shaxsiga xos xususiyatlarni bilmasalar, bolalar ongini o‘stirish ishiga to‘g‘ri rahbarlik qila olmaydilar. Ma’lumki, maxsus mакtab-internatlarida yengil va o‘rta darajadagi aqli zaif bolalar ta’lim oladilar. Ular orasida dadil, quvnoq bolalar bilan bir qatorda o‘jar, injiq, tortinchoq, kamgap bolalar ham uchrab turadi. Bu narsa pedagog uchun turli xarakterdagi bolalar bilan bir xil munosabatda bo‘lish imkonini bermaydi. Lekin pedagog, tarbiyachining asosiy vazifalaridan biri o‘ziga ishonib topshirilgan imkoniyati cheklangan bolalarning hammasida zamon talabiga munosib bo‘lgan shaxs sifatlarini o‘stirib, tarbiyalab berishdir. Bunday vazifani muvaffaqiyatli amalgaloshirish uchun bolalarni bir-biridan ajratib turuvchi individual farqlarni hamda bunday farqlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni bilish zarur bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, bolalar psixologiyasi, xususan maxsus psixologiyadan yaxshi xabardor bo‘lishni taqozo qiladi. Ma’lumki, korreksion psixologiya nogiron bola psixikasining taraqqiyoti hamda unda shaxsiy sifatlarning yuzaga kelishiga ta’sir qiluvchi omillarni ham o‘rganadi.

Bugungi kunda maxsus psixologiya va pedagogika fanlarining oldida bir qancha muhim nazariy va amaliy vazifalari turibdiki, ular aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash amaliyoti uchun juda zarur hisoblanadi:

- Boshlang‘ich sinf aqli zaif o‘quvchilarga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni, ya’ni ularning idrokiga, sezgi-tuyg‘ulariga, diqqatiga va xotirasiga, nutqi va tafakkuriga, xayoliga, irodasiga xos xususiyatlarni o‘rganish.
- Aqli zaif bolaning psixik taraqqiyotiga faol ta’sir qiluvchi omillarni aniqlab berish.
- Turli yoshdagagi aqli zaif bolalarning rivojlanishiga xos bo‘lgan fiziologik, psixologik qonuniyatlarni uyg‘unlikda o‘rganish.

- Aqli zaif bola shaxsiga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni bola yashab turgan muhit ta’sirida o‘rganish.
- Maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun bolada o‘qishga motivasiyani kuchaytirish yo‘llarini aniqlash va bu jarayonga oilalarni kengroq jalg qilish.
- Ta’lim jarayonida bolaning mustaqil, ijodiy, faol fikrlashini shakllantirishga yo‘naltirilgan sensomotorik yondashuvlarni aniqlash va joriy etish.
- Turli yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti xususiyatlariga doir bilimlarni o‘qituvchilar, ota-onalar, ya’ni jamoatchilar o‘rtasida keng yoyish, jamoatchilik fikrlarini o‘rganish, o‘rganish natijalari asosida kompleks ta’sir yo‘llari va vositalarini takomillashtirish.

Aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayonida pedagogika, psixologiya va valeologiya tamoyillari uyg‘unlashadi, ularning vositalaridan integrativ foydalanish talab etiladi. Shuning uchun biz tadqiqot davomida aqli zaif bolalarning ijtimoiy hayotga tayyorligini o‘rganishda aynan psixologik, pedagogik va ijtimoiy pedagogika usullari hamda tamoyillaridan integrativ holda foydalanishga e’tibor qaratdik. Ma’lumki, maxsus psixologiyaning amaliy vazifasi keng jamoatchilikning nogironligi bo‘lgan bola ruhiy taraqqiyoti, yosh davrlari xususiyatlari orasidagi farqlar va ularga individual munosabatda bo‘lish yo‘llari, ruhiy taraqqiyot qonunlariga doir psixologik bilimlardan bahramand bo‘lishlarini ta’minlashdan iborat.

Maxsus psixologiyaning rivojlantiruvchi vazifasi, avvalo, bolalarning psixik rivojlanishini ta’minlovchi ijtimoiy muhitni maqsadli yo‘naltirishga qaratiladi. Mazkur muhitda sog‘lom va ta’limda alohida ehtiyoji bo‘lgan bolalar, xususan, aqli zaif o‘quvchilarda ham psixik jarayonlar idrok, diqqat, mantiqiy-obrazli xotira, tafakkur, nutqiy va kommunikativ ko‘nikmalar, xayol, kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik namoyon bo‘ladi. Demak, aqli zaif bolalarning ijtimoiy hayotga tayyorligini o‘rganish metodikasini amaliyatga joriy etishda ijtimoiy muhit va unda bola harakati modellarini tahlil qilish muhim sanaladi.

Sanab o‘tilgan vazifalar orasida muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi vazifa bu o‘quv, korreksion va tarbiyaviy vazifalardir. Ular asosida aqli zaif bolalarda aqliy, axloqiy, estetetik, jinsiy, ekologik, mehnat, jismoniy, gender, huquqiy, gigiyenik va boshqa tarbiya yo‘nalishlariga oid sifatlarning shakllanganligi kuzatiladi, aniqlangan muammolar bartaraf etiladi. Jumladan, aqli tarbiya usul va vositalarini qo‘llash jarayonida bolalarda atrof-olam haqidagi tizimli bilimlar shakllanganligi o‘rganiladi. Bunda aqli zaif bolalarda dunyoqarashning elementar shakllari paydo bo‘lish holatlari sifat va miqdor jihatdan o‘rganiladi. Aqli zaif bolalarning

ijtimoiylashuvidagi muhim bo‘lgan narsa buyumlarning nomlari, qismlari va belgilarini farqlash imkoniyatlarini tahlil qilish sharoiti yaratiladi. Bolalarda mavjud bo‘lgan bu imkoniyat lug‘at orqali matematik hisob-kitobni amalga oshira olish ko‘nikmalarini kuzatish uchun tayanch muhit sanaladi.

Boshlang‘ich ta’lim davrida aqli zaif bolalarda atrof-olam haqida mantiqiy fikrlashning elementar shakllari rivojlanadi:

- analiz va sintez qilish;

- o‘simlik va hayvonlarning umumiy belgilari va individualligini ajrata olish ko‘nikmasi va umumlashtira olish (masalan: hayvonlarning belgilari, ko‘payishi, harakatlanishi, oziqlanishi, yashash joyiga ko‘ra turlarini ajrata olish va umumiy xulosa chiqarish);

- bolalar tabiat hodisalari tabiiy sabablar asosida bo‘lishi haqida ilk xulosalarni chiqara oladilar. Masalan, qor oppoq, u osmondan yog‘adi, qishda issiq kiyimlar kiyish kerakligi, qorong‘i tushishi, sovuq yoki issiq bo‘lishi va hakozolar.

Boshlang‘ich ta’lim davrida aqli zaif bolalarning ijtimoiy hayotga tayyorlash bo‘yicha ishlarning yo‘lga qo‘yilishida umumiy psixologiya va maxsus psixologiyada qo‘llaniluvchi metodlar qo‘llaniladi. Ular: kuzatish, eksperiment, suhbat, faoliyat mahsulini o‘rganish, kundalik va biografik materiallarni o‘rganish, sotsiometrik metod, test va shu kabi metodlardir.

Boshlang‘ich sinf aqli zaif o‘quvchilarning rivojlanishi, psixik taraqqiyotlari ularning turli-tuman faoliyatlarida sodir bo‘ladi. Ana shuning uchun aqli zaif bolalar psixologiyasi yuqoridaagi metodlarni bolalarning asosiy faoliyatlariga moslashtirib qo‘llaydi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, aqli zaif bola bilan ta’limiy-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda aynan ushbu muammoning kelib chiqish sabablari hamda darajalarini bilish muhimdir. Chunki aqli zaiflikni tuzatib bo‘lmasa-da, uni yumshatish, bilinmaydigan holatga olib kelish uchun pedagogning ilk qadamlari aynan tibbiy-pedagogik-psixologik yondashuvlarga tayangan holda amalga oshirilishi lozim.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni. QHMMB: 06/19/5712/3034-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2022-y., 6-son, 66-maqсад.
4. Abdunazarov A.O. Aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali omillari “Муғаллим хөм узликсиз билимленидирў” 3/1 son 2022 yil